



**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA BOSHQARUV QARORLARINING
IJROSINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA NAZORATNI
TA'MINLASH – MA'MURIY ISLOHOTLATLAR TALABI**

E.U. Azizov,

O'zbekiston Respublikasi Tashkiliy-shtab faoliyati kafedrası professori v.b.,

yu.f.b.f.d.(PhD), dotsent

Q.M. Nazarov,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Magistratura

tinglovchisi, podpolkovnik

<https://doi.org/10.5281/10.5281/zenodo.20423632>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar sharoitida ichki ishlar organlari faoliyatida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ularning ijrosini tizimli tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda qarorlar ijrosining samaradorligiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda sohani raqamlashtirish va "aqlli" boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: Ichki ishlar organlari, ma'muriy islohotlar, boshqaruv qarori, ijro nazorati, samaradorlik, tizimli tahlil, raqamlashtirish, ijro intizomi, monitoring.

ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ИСПОЛНЕНИЯ
УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ КОНТРОЛЯ В
ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ – ТРЕБОВАНИЕ АДМИНИСТРАТИВНЫХ
РЕФОРМ

Аннотация: В данной статье рассматриваются механизмы принятия

Contact: 99 826 99 56



управленческих решений, систематической организации и контроля их реализации в деятельности органов внутренних дел в контексте проводимых в нашей стране административных реформ. В исследовании выявляются факторы, препятствующие эффективности принятия решений, и разрабатываются научно-практические предложения по совершенствованию сектора на основе принципов цифровизации и «смарт» управления.

Ключевые слова: органы внутренних дел, административные реформы, управленческие решения, исполнительный контроль, эффективность, систематический анализ, цифровизация, исполнительная дисциплина, мониторинг.

EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EXECUTION OF MANAGERIAL DECISIONS AND ENSURING CONTROL IN INTERNAL AFFAIRS BODIES – A REQUIREMENT OF ADMINISTRATIVE REFORMS

Abstract: This article examines the mechanisms for making management decisions, systematically organizing and controlling their implementation in the activities of internal affairs bodies in the context of administrative reforms being implemented in our country. The study identifies factors that hinder the effectiveness of decision-making and develops scientific and practical proposals for improving the sector based on the principles of digitization and "smart" management.

Keywords: Internal affairs bodies, administrative reforms, management decision, executive control, efficiency, systematic analysis, digitization, executive discipline, monitoring.

Globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida xalqimizga yot g'oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi ichki ishlar organlari oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo'yicha





yangi vazifalar qo‘ymoqda. Mazkur vazifalarni o‘z vaqtida va samarali bajarish birinchi navbatda ichki ishlar organlari boshqaruv tizimida va xodimlar mehnatini tashkil etish bilan bog‘liq barcha xato va kamchiliklarni, muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini talab qiladi.

Bunda, ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan qabul qilingan boshqaruv qarorlarining o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishiga bog‘liq. Qaror qabul qilish boshqaruv jarayonining muhim bosqichi bo‘lsa, uni amalga oshirish ushbu qarorning haqiqiy qiymatini belgilab beradi. Shu sababli boshqaruv qarorlarini amalga oshirish texnologiyasini o‘rganish zamonaviy boshqaruv (menejment)ning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Boshqaruv qarorlari ijrosini tashkil etishda ijrochilar o‘zlarining burch va mas’uliyatlariga odilona yondashib, Vatan, davlat manfaati va xalq taqdirini o‘zlari uchun oliy maqsad deb hisoblab, qabul qilingan boshqaruv qarorlarini turmushda adolatli qo‘llasalar, bundan nafaqat davlat va jamiyat, balki xalq ham naf ko‘radi.

Shu o‘rinda davlatimiz rahbari SH.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Islahotlarimiz samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minlash lozim. Amaldagi nazorat tizimi esa, afsuski, ko‘proq formal tusga ega bo‘lib, ijroni tashil etishdagi muammolarni aniqlash va hal qilishga yo‘naltirilmayapdi. Shuning uchun endilikda bu borada yangcha ishlash tizimi joriy etilmoqda”[1].

Bugun O‘zbekistondagi keng qamrovli islohotlar mamlakat taraqqiyoti, jamiyat farovonligi va fuqarolar hayotini yaxshilashga qaratilgan. Islohotlarning samarali va o‘z vaqtida amalga oshirilishi esa, avvalo, ijro intizomiga bog‘liqdir. Shu jihatdan qaralganda, ijro intizomi islohotlarning muvaffaqiyatiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda[2].

Hususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va





mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida keyingi yillarda davlat boshqaruv tizimida to‘planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar ushbu vazifalarni samarali bajarishda to‘siq bo‘lib kelayotgani chuqur ilmiy va tanqidiy tahlillar bilan asoslab berildi.

Mazkur kamchilik va muammolarning barchasi bevosita ichki ishlar organlari boshqaruv tizimiga taalluqlidir: *birinchidan*, kiritilayotgan hujjatlar loyihalari yetarlicha iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o‘tkazilmayapti; *ikkinchidan*, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tashkiliy hamda nazorat faoliyatining shakllari va uslublari takomillashtirilmagan; *uchinchidan*, qabul qilinayotgan hujjatlarning mazmuni va ahamiyati mansabdor shaxslar tomonidan yetarli darajada o‘rganilmayapti, shuningdek, ushbu hujjatlarni, ayniqsa, aholi va keng jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar mavjud emas; *to‘rtinchidan*, shaxsiy so‘rov va qat‘iy talabchanlik o‘rniga ko‘plab ma’lumotnomalar va ma’lumotlar to‘planmoqda, shuningdek, mas’uliyatsiz rahbarlar, boshqaruvning o‘rta va quyi bo‘g‘inlari mutaxassislariga nisbatan liberal munosabatda bo‘linmoqda.

Yuqorida ko‘rsatilgan jiddiy kamchilik va muammolar, eng avvalo, ichki ishlar organlari tizimi barcha bo‘g‘inlaridagi rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xodimlarning ichki ishlar organlarida boshqaruv va mehnatni tashkil qilishga oid ilmiy bilimga yetarli darajada ega emasliklari, ikkinchidan, ichki ishlar organlarida boshqaruv nazariyasi fanining amaliyotni ushbu sohada zamonaviy bilimlar bilan ta’minlamayotganligi, qolaversa, amaliyot bilan aloqaning uzilib qolganligi natijasidir.

O‘zbekiston Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni[3] hamda 2021-yil



31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida[4] ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha yagona va uzluksiz “texnologik zanjir”ni tashkil qilish borasidagi ustuvor yo‘nalishlar etib quyidagilar belgilandi:

– qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar loyihalarini har tomonlama puxta hamda yuksak professional darajada tayyorlash;

– boshqaruv tizimini, zamonaviy O‘zbekistonni rivojlantirishning yangi bosqichini, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani, shuningdek, respublika hududlarini maqsadli hamda ustuvor vazifalarga muvofiq takomillashtirish;

– qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali va rejali tashkil qilish, ularning bajarilish holatini maqsadli o‘rganish va aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha tezkor choralar ko‘rish;

– qonunchilik hujjatlari va topshiriqlardagi nazorat bandlarida aniq mexanizmlar, muddatlar va mas’ullar belgilanishi bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni (harakat rejalarini) o‘z vaqtida ishlab chiqish;

– davlat organlari va tashkilotlarining ijro intizomiga mas’ul bo‘linmalarining ijro intizomini mustahkamlashdagi rolini oshirish;

– tashkiliy, ijro va nazorat faoliyati yagona tizimining natijadorligi uchun davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini belgilash.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, 2019-yil 1-yanvardan boshlab:

- 1) hududiy ichki ishlar organlari faoliyatiga oid muammolarni oldindan o‘rgangan holda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay’atining sayyor va tezkor majlislarini o‘tkazish va ular faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha maqsadli qarorlar qabul qilish;
- 2) hududiy ichki ishlar organlarini har uch yilda kamida bir marotaba tekshirish hamda u o‘tkazilganidan so‘ng bir yil ichida ular faoliyatini nazorat tartibida o‘rganish amaliyoti joriy etildi.





Jamiyat qo'yayotgan talablar nuqtai nazaridan hamda davlatning barcha ma'muriy hududlarida yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish ichki ishlar organlarining har bir xodimidan, ayniqsa, barcha bo'g'indagi rahbarlardan yuksak kasbiy va axloqiy xislatlarga, jumladan ichki ishlar organlarini boshqarishga oid nazariy bilimlarga ega bo'lishni va ularni amaliyotda qo'llashni talab qilmoqda.

Ilmiy manbalarga ko'ra, boshqaruv qarorlari ijrosini tashkil qilish juda murakkab va mazmunan xilma-xil faoliyatdir. Ichki ishlar organlari va ular bo'linmalarining rahbarlari, shuningdek tarmoq (funksional) xizmatlari va tashkiliy bo'linmalari boshqaruv apparatlarining inspektorlik (tezkor) tarkibi har kuni turli-tuman qarorlar ijrosiga doir tashkiliy ishlar bilan shug'ullanadi. Bunda ular ham o'zlari chiqargan qarorlarning, ham yuqori turuvchi boshqaruv subektlari qarorlarining ijrosini tashkil qiladilar. Bu ish ancha uzoq vaqt talab qilishi yoxud juda tez kechishi mumkin. Ammo qarorlar turi va qanday xususiyatga ega bo'lishidan hamda amalga oshirish uchun qancha vaqt talab qilinishidan qat'i nazar, ularning har biri bo'yicha bajariladigan tashkiliy ishlar qarorlar ijrosini tashkil qilish jarayonining elementlarini (bosqichlarini) tashkil qiluvchi bir qator o'xshash harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shu elementlar, aslida, qaror ijrosining o'ziga xos mexanizmini tashkil etadi[5]. Demak, har qanday hujjat ijrosini ta'minlashda ularda belgilangan amaliy mexanizmlar, shakllar va usullardan samarali foydalanish zarur.

Shundan kelib chiqib, ichki ishlar organlari tizimida: *birinchidan*, ijro intizomini mustahkamlash maqsadida ish yuritishning ichki jarayonlari avtomatlashtirilishi; *ikkinchidan*, elektron hujjat aylanishi tizimi to'liq joriy etishni; *uchinchidan*, soha faoliyatiga taalluqli hujjatlar ijrosini tashkil qilish bo'yicha aniq maqsadga - yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishni; *to'rtinchidan*, ularni tegishli xodimlarga muddatida va to'liq yetkazish hamda nazorat kartotekalarini yuritish tizimi yo'lga qo'yishni talab etadi.





REFERENCES:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi (Matn) / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 102.
2. Islomov B. Ijro intizomi – islohotlar samaradorligi asosi // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2025 yil 1 iyul, 133-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5279413>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2021 yil 31 maydagi PQ-5132-son qarori// <https://lex.uz/docs/5439350>
5. Pulatov Y. S., Ismailov I. U., Qurbonov A. Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari. – T., 2005. – B. 168.

